



ZULFIYA IJODIDA PEYZAJ TASVIRI

Yangiboyeva Nurhayot

*Xiva shahrida joylashgan Ogahiy ijod maktabining
10-“B” sinf o‘quvchisi*

Zulfiya ijodi o‘zining teranligi, jozibadorigi va hislarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, shoiraning she’rlarida berilgan peyzaj tasviri misralarni yanada jonliroq tasavvur qilishimizga, shoira yatmoqchi bo‘lgan fikrlarni chuqur anglashimizga, kitobxon qalbini she’riyat bulog‘ining zilol suvi bilan sug‘orishga xizmat qiladi. “Tasviriy adabiyotdagi tabiat manzaralari peyzaj, deb yuritiladi. U adabiy asarda muayyan g‘oyaviy-kompozitsion vazifani bajaradi. Yozuvchilar peyzaj yordamida xarakterlarni harakatda, doimiy o‘zgarishda ko‘rsatadilar.”¹ Zulfiya she’rlarini mutolaa qilar ekanmiz, “daraxt”, “bahor”, “kuz” va “yomg‘ir” kabi badiiy obrazlarni uchratamiz. Bu obrazlar, aslida, inson va uning kechmishlarini tasvirlagan ramziy obrazlardir. Bunga misol qilib, quyidagi bandga e’tibor qaratsak:

Nomlari, yodlari payg‘ambar monand

Hazrat ustozlarim – teran ildizlar.

Men undan jon olib ko‘kargan daraxt,

Mevasi – qalbimdan otilgan so‘zlar.²

Shoira bu yerda o‘zini daraxtga qiyoslaydi. “Ildizlar” deganda ustozlarini nazarda tutadi va “meva” deya bitgan she’rlarini tilga oladi. Shoira bu yerda bir butun mevali daraxt orqali o‘tmish, hozir va keljakni bir-biriga chambarchas bog‘lab beradi.

Shu kunlarda bahorga zorman,

Navjuvonlik o‘ti tanda yo‘q.

Kuz singari za’far ruxsorman,

Mevalar ham shoxlardan uzuq.³

Ushbu bandda esa, shoiraning o‘zga bir intim hislariga duch kelamiz. Shoira “bahorga zorman” deyish orqali yoshliknigina emas, baxtli kunlar, ya’ni Hamid Olimjon bilan o‘tgan shodon kunlariga ham belgi bermoqda. Shoiraning yuzi kuz yanglig‘ sarg‘aygani ham sog‘inch, hijron azobidan darak beradi. “Mevalar”

¹ Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik komponiyasi tahririyati, 2008-yil, 99-bet.

² Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab (“Bu oqshom...” she’ri). – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil, 6-bet.

³ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab (“Sog‘inib” she’ri). – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil, 28-bet.



deganda shoiraning o‘z yo‘lini topgan, mustaqil hayotga uchirma bo‘lgan farzandlari nazarda tutilayotgan bo‘lsa, ajab emas.

Yana bugun bahorga zorman,

O‘z bahorim kabi shoshqaloq.

Yana bugun bahorga zorman,

Kutaverib dil bo‘ldi qadoq.⁴

Shoira “bahor” orqali o‘z suyuklisi Hamid Olimjonni nazarda tutganining yana bir isboti bo‘lgan ushbu bandda “shoshqaloq” bahor tilga olingan. Bu orqali Zulfiya turmush o‘rtog‘ining erta vafot etganligini badiiy tasvir orqali ochib bergen. Endi u bu shoshqaloq bahorning qaytishini bilsa-da, baribir kutaveradi. Mana shu badiiy vositalar orqali she’riy niyatini ro‘yobga chiqaradi. O‘quvchiga o‘z hijronlarini shunchaki aytib qo‘ymaydi. “Badiiy asarlarda so‘z hayot voqealigi aks ettirish uchun material, vosita vazifasini bajaradi. Adib, shoir voqelikning muayyan ko‘rinishi, kishilarning holat, harakat, kechinmalarini aniq va ta’sirchan ifodalaydigan so‘zlar topadi. Ushbu so‘zlar kishilarning ongiga ta’sir etib, ularda hayotning muayyan voqeligi, insoniy kechinma, tuyg‘ulari to‘g‘risida tasavvur uyg‘otadi. Shu bois o‘quvchi, tomoshabin so‘zlar vositasida tasvirlangan inson obraziga, uning kechmish-kechirmishlariga befarq, loqayd qaray olmaydi. Kishilarning ongi, tuyg‘ulariga ta’sir etib, ularni turli holatga soladigan qahramonlar obrazi, tabiat ko‘rinishlari turli badiiy tasvir vositalari sifatida qo‘llanadigan so‘zlar orqali ifodalanadi.”⁵

Zulfiyaning “Majnuntol” she’rida bahorning ilk kirib kelishi va shoir tushunchasini majnuntol daraxti orqali tasvirlab bergen. Ilk bahor kunlari, qishning izg‘irini ketib, sovuq nafasi sal-sal seziladigan paytlarda majnuntolning novdalari yashillik ola boshlashi shoir xayoliga qiyoslanadi. Ko‘klamning tug‘ilishi, ya’ni kirib kelishi shu tarzda ifdalanadi.

Yalang‘och daraxtlar ora majnuntol,

Shoir xayoliday latif, serhasham.

Butun novdalar-u tanlari zilol,

Shu yerda tavallud topmish ilk ko‘klam.⁶

⁴ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab (“Yana bugun bahorga zorman” she’ri). – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil, 29-bet.

⁵ Ulug‘ov Abdulla. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018-yil, 90-bet.

⁶ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab (“Majnuntol” she’ri). – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil, 39-bet.



Shoiraning “yomg‘ir” obrazı bir necha she’rlarda turli xil maqsadlarga xizmat qilgan. “Yomg‘ir” she’rida unga qarata murojaat qilarkan, undan yo‘l ko‘rsatishini so‘raydi. Uni ezgulik ulashuvchi sifatida tasvirlaydi.

Yomg‘ir, sen tabiat saxiy farzandi,

Menga ko‘rsat yo‘l.

San’ating yuvadi yer-u ko‘k gardin,

Ezguliging mo‘l.⁷

Biroq shoiraning “Ko‘rganmiding ko‘zарimda yosh” she’rida yomg‘irni dardiga sherik, yupatguvchi sifatida tasvirlaydi. Shoir qabriga gul ko‘tarib borgan ijodkor va uning ruhiy holati, qayg‘usi bulutli osmon, yomg‘ir orqali yanada kuchli ifodalanadi. Shuningdek, shoiraning “Daraxt” she’ri bugungi kunni bashorat qilganga o‘xshaydi. O‘zining umrini yana daraxtga qiyoslagan ijodkor, bir kun kelib daraxtday qulagan taqdorida ham uning izdoshlari, shogirdlari, kitobxonlari qolishiga ishora qiladi va bunga ishonch bildiradi.

Endi yel bo‘shliqda kezar darbadar,

Tanho qurbanining qaqqashin izlab...

Bilaman, daraxtday qulasam agar

Mening hayot bog‘im qolmas huvillab.⁸

Darhaqiqat, shoiraning hayot bog‘I huvillab qolmadi. O‘zbekning Zufliyalari nihol kabi unib kelmoqda. Ularning ovozlari jahon minbarlarida, har bir chekka hududda barilla yangramoqda. Bu shoirning ma’naviy niyatini amalga oshganligidan dalolatdir. Shoiraning ijodidagi peyzaj tasviri o‘z o‘rnida badiiy tasvirni kuchaytirib, ijodkor niyatini aniq, ifodali, lo‘nda va ta’sirchan chiqishiga xizmat qilgan.

⁷ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab (“Yomg‘ir” she’ri). – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil, 47-bet.

⁸ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab (“Daraxt” she’ri). – T.: “Yoshlar matbuoti”, 2023-yil, 132-bet.